

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA MAYDA QO'L MOTORIKASINING RIVOJLANISHI

Xalilova Maftuna Baxtiyor qizi

*O'zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv
ta'lim fakulteti logopediya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda ko'rish patologiyasining bolalarning sensomotor rivojlanishi, taktil sezgirligi, qo'l harakatlari koordinatsiyasi hamda predmet-amaliy faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, mayda motorikaning nutq, bilish jarayonlari va ijtimoiy moslashuv bilan o'zaro bog'liqligi ochib berilgan..

Kalit so'zlar: ko'rish nuqsoni, maktabgacha yosh, mayda motorika, umumiy motorika, sensor-motor rivojlanish, taktil sezgi, kompensatsiya, mahsuldor faoliyat, applikatsiya, ko'rish-harakat koordinatsiyasi, korreksion-pedagogik yordam

DEVELOPMENT OF FINE MOTOR SKILLS IN CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Khalilova Maftuna

*Student of the Department of Speech Therapy,
Faculty of Pedagogy-Psychology and
Inclusive Education, UzMPU university*

Abstract: This article highlights the theoretical and practical aspects of developing fine motor skills in preschool children with visual impairments. The study analyzes the impact of visual pathology on children's sensorimotor development, tactile sensitivity, hand movement coordination, and object-practical activities. Furthermore, the interconnectedness of fine motor skills with speech, cognitive processes, and social adaptation is revealed and thoroughly explained.

Keywords: visual impairment, preschool age, fine motor skills, gross motor skills, sensorimotor development, tactile perception, compensation, productive activity, applique, visual-motor coordination, correctional-pedagogical assistance.

Maktabgacha yosh davri har bir bolaning hayotida uning keyingi rivojlanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda uning shaxsiyati "poydevori" shakllanadi va rivojlanadi. Sensor-motor rivojlanish maktabgacha yoshda rivojlanishning yetakchi omillaridan biridir.

Ko‘rish patologiyasiga ega bolalarda bilish (kognitiv) va harakat faolligi pasaygan bo‘ladi. Bu esa sezish (taktik) sezgirligi va qo‘l motorikasining rivojlanishini sekinlashtiradi, predmet-amaliy faoliyatning shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek, ko‘z va qo‘l harakatlarining muvofiqlashuvi hamda qo‘lning yozishga tayyorgarligiga salbiy ta‘sir qiladi. Ko‘rish va sezish o‘rtasida ko‘plab umumiyliklar mavjud. Ularning asosiy o‘xshashligi harakat faoliyatida namoyon bo‘ladi. Predmetlarni paypaslab o‘rganadigan qo‘l ko‘rmaydigan inson uchun deyarli ko‘z bajaradigan vazifani bajaradi, faqat predmetlarning rangini ajrata olmaydi va qo‘l yetadigan masofadan uzoqdagi narsalarni sezmaydi. Ammo sezish faqat barmoqlar va kaftlarni muntazam mashq qildirish orqali atrof-muhitni bilishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Sezish (taktik) va mayda motorikani rivojlantirish muammosi turli faoliyat turlarida samarali hal etiladi: tasviriy faoliyatda, konstruksiyalashda hamda o‘yin faoliyatida. Ushbu faoliyat turlari ko‘rish a‘zosi va qo‘l harakatlarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlaydi, harakatlar koordinatsiyasini, egiluvchanligini, aniqligini takomillashtiradi hamda qo‘l barmoqlari mayda motorikasini korreksiya qilishga yordam beradi.

Bola axborotning katta qismini ko‘rish orqali qabul qiladi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bola esa atrof-muhit haqidagi ma‘lumotni o‘zining saqlanib qolgan barcha sezgi a‘zolari orqali olishga muhtoj bo‘ladi: qoldiq ko‘rish, eshitish, sezish (taktik), hid bilish va ta‘m bilish orqali. Aynan shu sezgi a‘zolari yordamida bola o‘zining keyingi jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Sezish (taktik his qilish) buzilgan ko‘rishni kompensatsiya qilishning kuchli vositasi hisoblanadi, chunki aynan sezish orqali ko‘rishida muammosi bo‘lgan bola atrof-muhitdagi predmetlarning belgilari va xususiyatlarini anglaydi. Sezishni rivojlantirish mayda motorikani rivojlantirish uchun yaxshi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Motorika (lotincha motor — harakatga keltiruvchi) — bu organizmning, uning organlari va qismlarining harakat faolligidir (nerv, mushak va suyak tizimlari). Motorika inson organizmining harakat faoliyatini boshqarish va amalga oshirish qobiliyati bo‘lib, u bolaning jismoniy, psixik, nutqiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Motorika ikki asosiy turga bo‘linadi: umumiy motorika va mayda motorika.

Umumiy motorika inson tanasining yirik mushaklari yordamida bajariladigan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bunga yurish, yugurish, sakrash, emaklash, muvozanatni saqlash, zinadan chiqish, to‘p o‘ynash kabi faoliyatlar kiradi. Ushbu harakatlar orqali bola atrof-muhitni o‘rganadi, mustaqil harakatlanishni o‘zlashtiradi hamda fazoviy tasavvuri rivojlanadi. Umumiy motorika bolaning dastlabki rivojlanish bosqichlaridan boshlab shakllanadi. Chaqaloqlik davrida boshni ushlash, ag‘darilish, o‘tirish va emaklash kabi harakatlar kuzatilsa, keyinchalik yurish, yugurish, sakrash va murakkab

koordinatsion harakatlar rivojlanadi. Umumiy motorikaning rivojlanishi mushak va suyak tizimini mustahkamlash, muvozanat va koordinatsiyani shakllantirish hamda organizmning umumiy jismoniy rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Mayda motorika esa qo'l barmoqlari, kaft va bilak mushaklari yordamida bajariladigan nozik va aniq harakatlarni anglatadi. Yozish, chizish, tugma qadash, qaychi ishlatish, mozaika terish, plastilin bilan ishlash, ip o'tkazish kabi faoliyatlar mayda motorikaga misol bo'la oladi. Mayda motorika bolaning kundalik hayot faoliyati, mustaqilligi va ayniqsa yozuv malakasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalarda mayda motorika asta-sekin rivojlanadi. Dastlab ular o'yinchoqlarni ushlab, siqish va qo'l bilan sezish orqali oddiy harakatlarni bajaradi. Keyinchalik qalam ushlab, shakllarni chizish, konstruktor yig'ish kabi murakkabroq faoliyatlarni bajarishga o'tadi. Maktab yoshiga kelib esa yozish va chizish kabi nozik harakatlar shakllanadi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda paypaslab sezish (o'rganish) sezgirligi va qo'l panjasi hamda barmoqlarning mayda motorikasi rivojlanish darajasi past bo'ladi. Bu holat shundan kelib chiqadiki, bunday bolalar ko'proq vizual yo'naltirishga tayanadi va paypaslab bilishning ahamiyatini yetarlicha anglamaydi.

Mayda motorika va nutq rivojlanishi o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Olimlarning ta'kidlashicha, qo'l barmoqlari harakatini boshqaruvchi miya markazlari nutq markazlariga juda yaqin joylashgan. Shu sababli barmoq harakatlarini rivojlantirish nutq faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa logopedik mashg'ulotlarda barmoq gimnastikasi, plastilin bilan ishlash, mozaika terish, boncuk tizish kabi mashqlar keng qo'llaniladi. Bu mashqlar bolalarning artikulyatsion apparatini faollashtirib, talaffuzni yaxshilashga, lug'at boyligini oshirishga va nutq faolligini kuchaytirishga yordam beradi.

Umumiy va mayda motorikaning yetarli rivojlanmaganligi bolalarda turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Umumiy motorika buzilgan bolalarda muvozanatni saqlash, yugurish, sakrash yoki koordinatsion harakatlarni bajarishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Mayda motorika sust rivojlangan bolalarda esa qalamni noto'g'ri ushlab, yozishda qiynalish, tugma qadash yoki kichik predmetlar bilan ishlashdagi noaniqliklar namoyon bo'ladi. Bunday holatlar nevrologik kasalliklar, ko'rish nuqsonlari, autizm spektr buzilishlari yoki intellektual rivojlanishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda motorika rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Vizual nazoratning cheklanganligi sababli ularda muvozanat, fazoviy orientatsiya va harakat koordinatsiyasi sust rivojlanishi mumkin. Shuningdek, qo'l harakatlarining aniqligi ham pasayadi. Shu sababli bunday bolalar bilan ishlashda taktil sezgilarni rivojlantirish, rel'efli materiallardan foydalanish, eshitish orqali yo'naltirish hamda maxsus jismoniy mashqlarni qo'llash muhim

ahamiyatga ega. Orientatsiya va mobilitet mashqlari ham ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning mustaqil harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Qo‘lning mayda motorikasi rivojlanishidagi orqada qolish ularda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini egallashga to‘sqinlik qiladi, turli kichik buyumlar bilan ishlashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, bunday bolalar atrof-dagilarga taqlid qilish orqali bu ko‘nikmalarni mustaqil ravishda egallay olmaydi. Shuning uchun paypaslab sezish va mayda motorikani rivojlantirish atrof-muhitni bilishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Zaif ko‘ruvchi bolalarda mayda motorikani korreksiya qilishda turli bolalar faoliyatining ahamiyati:

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitdagi predmet va hodisalar haqida real tasavvurlarni shakllantirish — korreksion-pedagogik ishlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Paypaslab sezish va mayda motorika ko‘nikmalarining shakllanishi turli predmet-amaliy faoliyat turlarida amalga oshadi. Masalan, mahsuldor faoliyatda. Mahsuldor faoliyat deganda bolalar tomonidan o‘ylab topilgan va natijada muayyan mahsulot hosil bo‘ladigan faoliyat tushuniladi: rasm, qo‘l mehnati buyumlari va boshqalar. Mahsuldor faoliyat turlariga rasm chizish, loy yoki plastilindan yasash (lepka), aplikatsiya (yopishtirish), konstruksiya qilish, qo‘l mehnati kiradi. Bunday faoliyat turlari bolaning qo‘lini chaqqon qiladi, asboblarni oson va erkin boshqarishga o‘rgatadi hamda qo‘l va ko‘z o‘rtasidagi muvofiqlikni rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo‘lning mayda motorikasini rivojlantirishning samarali shakllaridan biri — tasviriy faoliyat mashg‘ulotlaridir. Tizimli rivojlantirish bolalarda motor funksiyalarining rivojlanish mexanizmlarini tushunishga va ko‘plab funksiyalarni izohlashga yordam beradi. Motor funksiyaning rivojlanishi esa bilish jarayonlarining takomillashishiga, kelib tushayotgan ma’lumotlarni (jumladan, ko‘rish organi orqali) yaxshiroq idrok etishga xizmat qiladi. Rasm chizish, aplikatsiya va loydan shakllar yasash (lepka) tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarida ko‘rib chiqiladi: pedagogik ta’sir vositasi sifatida, bolani psixologik-pedagogik o‘rganish usuli sifatida hamda ko‘rish analizatori faoliyatidagi buzilish darajasini aniqlash vositasi sifatida. Zamonaviy maxsus pedagogika, shuningdek adaptiv jismoniy tarbiya ko‘rish nuqsonlarini korreksiya qilishning samarali vositalarini izlar ekan, tobora ko‘proq tasviriy faoliyatdan ko‘r va zaif ko‘ruvchi maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida foydalanishga yo‘naltirilmoqda. Tasviriy faoliyat korreksiya vositasi, shuningdek ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda mayda motorikani rivojlantirish omiliga aylanishi, uning bolaning qo‘l motorikasiga yaxshi ta’sir qilishida dalolat beradi.

Aplikatsiya — bu faoliyat turi bo‘lib, unda turli rangdagi material bo‘laklari (qog‘oz, mato va boshqalar) asosiy fon (qog‘oz, mato va boshqa material) ustiga yopishtirish yoki tikish orqali bajariladi. Qog‘oz aplikatsiyasini bajarish grafik ko‘nikmalarni egallashni talab qiladi (qalam, chizg‘ich, trafaret bilan ishlash). Bolalar

qaychidan foydalanishni, elimni cho'tka yordamida to'g'ri surtishni, buyumlarni tartibli va chiroyli yopishtirishni o'rganadilar. Bu jarayonda bolalarda fazoviy tasavvurlarni idrok etish, rangni farqlash, ko'z o'lchovi (glazomer), shakl hissi, ko'rish va harakat xotirasi, ixtiyoriy diqqat, mustaqillik rivojlanadi hamda qo'lning umumiy epchilligi shakllanadi. Mashg'ulotlar davomida bolalar turli materiallarning xossalari bilan tanishadilar: teri, qog'oz, somon, mato va hokazo. Shu orqali ularning taktil (paypaslab sezish) hissiyotlari yanada rivojlanadi. Motorikani rivojlantirishga doir biqancha usullar mavjud quyida ularni ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

Mayda motorikaning rivojlanishi har qanday bolaning, jumladan imkoniyati cheklangan bolalarning ham bilish, irodaviy va emotsional sohalari rivoji bilan chambarchas bog'liq. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu ayniqsa muhim, chunki bu ularning ijtimoiylashuvi va atrof-muhitga moslashuvini osonlashtiradi. Mayda motorikaning rivojlanishi bilish faoliyatini amalga oshirish shartlaridan biri sifatida, maxsus (korreksion) maktab-internatlarda ta'lim olishda muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi. Dars mashg'ulotlaridagi qator topshiriq va o'yinlar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning sensomotor rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy adabiyotlarda tasdiqlangan. Quyida shunday mashg'ulotlardan namunalarni ko'rib chiqamiz.

“Ayiqcha yasash” mashg'ulotining maqsadi bolalarga qog'ozni buklashni o'rgatish, buklash usullarini ko'rsatish, buklangan joylarni tekislash hamda elim va cho'tkadan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Bularning barchasi qo'lning mayda motorikasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi mashg'ulotni qo'l barmoqlari uchun maxsus mashqlar bilan boshlaydi. Masalan, “Masha va ayiq” ertagini eslab, bolalar matnni takrorlaydi va mos ravishda barmoqlar bilan harakatlar bajaradi. Tarbiyachilar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'shimcha mashg'ulotlardan so'ng ayrim bolalarning ish samaradorligi ko'rsatkichlari sog'lom rivojlanayotgan bolalarga yaqinlashgan. Farq asosan ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda xatolar sonining ko'proq bo'lishida kuzatilgan. Biroq ular asta-sekin o'z xatolarini mustaqil ravishda anglay boshlaganlar. Mayda motorika rivojlanish darajasini aniqlash uchun qog'ozni shablon asosida belgilash, chizish va qirqish ko'nikmalarini baholashda “Qaychi bilan rasm chizish” metodikasi qo'llanildi. Ushbu metodika bolalarda nafaqat diqqatni, balki ko'rish-harakat koordinatsiyasini va qo'l panjasining mayda motorikasini rivojlantiradi. Mashg'ulot uchun kichik va o'tkir uchli qaychi tanlanadi. Bolalarga turli shakldagi vazalar ko'rsatiladi, ular ularni ko'rib va paypaslab o'rganadilar, bu esa sensor rivojlanishga xizmat qiladi. Topshiriqqa ko'ra, bolalarga ikki buklangan rangli qog'oz beriladi va ular shu qog'ozdan qaychi yordamida vaza shaklini kesib olishlari kerak. Avval shablon qog'ozga qo'yilib, qalam bilan chizib olinadi, so'ng chiziqlar

bo‘ylab qir qiladi. Ushbu metodikani bajarish natijalarini baholash uchun quyidagi darajalarga ajratiladi.

- Yuqori darajada--bola topshiriqni to‘g‘ri va mustaqil bajaradi.
- O‘rta daraja — bolalar kichik qiyinchiliklarga duch keladilar.
- Past daraja — topshiriqni noto‘g‘ri bajarish.

Xulosa qilib aytganda, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish korreksion-pedagogik ishlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki mayda motorikaning rivojlanganligi bolaning nafaqat jismoniy va harakat faoliyatiga, balki uning nutqiy, aqliy, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘rish analizatori faoliyatidagi cheklanishlar natijasida bunday bolalarda qo‘l harakatlarining aniqligi, koordinatsiyasi va taktil sezgirligi sust rivojlanadi. Bu esa predmet-amaliy faoliyatni egallash, yozishga tayyorgarlik, mustaqil harakatlanish hamda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarining shakllanishini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, korreksion mashg‘ulotlarni tizimli va maqsadli tashkil etish bolalarda mustaqillik, diqqat, xotira, ijodkorlik hamda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Turli didaktik o‘yinlar va amaliy mashqlar orqali bolalar predmetlarning shakli, hajmi, tuzilishi va xossalarini yaxshiroq anglay boshlaydilar. Bu esa ularning bilish faoliyatini kengaytiradi hamda maktab ta’limiga tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U.Qodirova va Z.X.Xusnuddinova. “Tiflopedagogika”. Chirchiq-2023
2. P.M.Po‘latova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: “Fan va texnologiya”, 2014
3. Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (umumiy kurs). – Toshkent, 2019.
4. Солнцева Л.И. Тифлопедагогика. – Москва, 2000
5. Дружинина, Л.А. Психолого-педагогическое сопровождение дошкольников с нарушениями зрения в условиях инклюзивного образования [Текст]: учебно-методич. пособие / Л.А. Дружинина, Л.Б. Осипова, Л.И. Плаксина. – Челябинск: Изд-во Юж.-Урал. гос. гуман. пед. ун-та, 2017. – 254 с